

UZBEK TRANSLATION OF THE WORLD BESTSELLER: OZOD
SHARAFIDDINOV'S STYLE IN THE TRANSLATION OF "THE ALCHEMIST"

Foziljonova Yorqinoy Ubaydullo qizi O'ZJOKU,
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi
2- bosqich talabasi ORCID: 0009-0009-6401-670X
yorqinoyfoziljanova@gmail.com

Abstract. This article analyzes Paulo Coelho's novel "The Alchemist" and its translation into Uzbek by Ozod Sharafiddinov. The article is aimed at studying the artistic expression, philosophical content and spiritual aspects of the translation. The translator's style in Uzbek and his ability to vividly convey the tone of the text allow the reader to understand the philosophical and artistic content of the novel.

Keywords: Alchemist, Paulo Coelho, Ozod Sharafiddinov, the art of translation, literary translation, philosophical content, spiritual growth, Uzbek translation studies

Ўзбекский перевод мирового бестселлера: стиль Озода Шарафиддинова в переводе "Алхимика"

Аннотация. В данной статье анализируется роман Пауло Коэльо "Алхимик" и его перевод на узбекский язык, выполненный Озодом Шарафиддиновым. Цель статьи - изучение художественной выразительности, философского содержания и духовных аспектов перевода. Стиль переводчика на узбекском языке и его умение ярко передать тон текста позволяют читателю понять философское и художественное содержание романа.

Ключевые слова: Алхимик, Пауло Коэльо, Озод Шарафиддинов, искусство перевода, литературный перевод, философское содержание, духовный рост, узбекское переводоведение.

Jahon bestsellerining o'zbekcha talqini: "Alkimyogar" tarjimasida Ozod Sharafiddinov uslubi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Paulo Koeloning “Alkimyogar” romani va uning Ozod Sharafiddinov tomonidan o‘zbek tiliga tarjimasi tahlil qilinadi. Maqola tarjimaning badiiy ifodasi, falsafiy mazmuni va ruhiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tarjimonning o‘zbek tilidagi uslubi va matn ohangini jonli yetkazish qobiliyati o‘quvchiga romanning falsafiy va badiiy mazmunini anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Alkimyogar, Paulo Koelo, Ozod Sharafiddinov, tarjima san’ati, badiiy tarjima, falsafiy mazmun, ruhiy o‘sis, o‘zbek tarjimashunosligi

Kirish. Jahon adabiyotining eng ko‘p o‘qiladigan asarlaridan biri sanaladigan Paulo Koeloning “Alkimyogar” romani bugungi kunda butun dunyo kitobxonlari ongida ruhiy izlanish, o‘zini anglash va orzular sari intilish timsoli sifatida yashab kelmoqda. Asarning falsafiy mazmuni, sodda va ravon bayon uslubi, insonning ichki olamiga chuqur kirib boruvchi g‘oyalari uni turli xalqlarda teng darajada mashhur qildi. Shu boisdan ham roman qisqa vaqt ichida jahon bestsellerlari qatoriga kirib, deyarli barcha yirik tillarga tarjima qilindi.

O‘zbekiston kitobxonlari orasida ham “Alkimyogar”ning shuhrati nihoyatda baland. Asar yurtimizda bir necha marotaba nashr qilingan bo‘lib, eng e‘tiborli tarjimalardan biri tarjima Ozod Sharafiddinov tomonidan amalga oshirilganligidir. Sharafiddinovning badiiy didi, tarjima san’atidagi yuksak mahorati va matn ruhiga bo‘lgan ehtiyotkor munosabati tufayli roman o‘zbek tilida ham o‘zining tabiiy ohangini, falsafiy teranligini yo‘qotmagan holda o‘quvchilar qalbiga yetib borgan. Ozod Sharafiddinov o‘zbek adabiyotshunosligi va tarjimashunosligining eng nufuzli namoyandalaridan biri sifatida nafaqat jahon adabiyotini o‘zbek o‘quvchisiga tanitgan, balki tarjima madaniyatining yuksalishiga ham ulkan hissa qo‘shgan.

Uning qo‘lida Koeloning asari nafaqat tarjima qilingan matnga, balki o‘zbek kitobxonining ruhiy olamiga moslashtirilgan badiiy hodisaga aylandi.

Ushbu maqolaning maqsadi - “Alkimyogar”ning o‘zbekcha talqinida Ozod Sharafiddinov uslubining o‘rni va xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, tarjimonning asar mazmunini yetkazishdagi yondashuvlarini ko‘rsatish va ushbu

tarjimaning o'zbek kitobxonlari ongiga ko'rsatgan ta'sirini yoritishdan iborat. Mazkur mavzu bugungi adabiy jarayon, tarjima madaniyati va jahon badiiy merosining mahalliy kitobxonga yetkazilishi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Paulo Koeloning "Alkimyogar" romani nafaqat sarguzashtga boy syujet, balki chuqur falsafiy qatlamga ega bo'lgan asar sifatida tanilgan. Asar markazida turuvchi bosh qahramon - Santiago obrazi oddiy cho'pon yigit ko'rinishida berilgan bo'lsa-da, uning ruhiy o'sishi, ma'noni izlash jarayoni butun asarning badiiy ustunligini tashkil qiladi. Santiago yo'li - tashqi sayohat emas, balki insonning o'zini topish yo'li, ya'ni shaxsiy uyg'onish timsolidir. Shu jihati bilan roman millionlab kitobxonlarga yaqin bo'lgan va dunyo adabiyotida o'ziga xos o'rin egallagan. Asarda eng asosiy g'oya - "shaxsiy afsona" tushunchasidir. Bu atama Koelo falsafasida insonning tug'ilganidan boshlab unga berilgan ichki chaqiriq, o'z takdiri sari borish yo'lini anglatadi. Muallif fikriga ko'ra, inson o'zining "shaxsiy afsonasi"ni anglab yetganida, tabiat ham, imkoniyatlar ham, hayotning o'zi ham uning yordamchisiga aylanadi. Santiago boshdan kechirgan sinovlar, uchratgan odamlar, eshitgan hikmatlar - bularning barchasi unga o'z ichki ovozi eshitishni o'rgatadi.

Romanning badiiy dunyosi ramzlar bilan boyitilgan. Cho'l - ruhiy poklanish makoni, qushlar - xabar beruvchi timsol, shamol - o'zgarish ramzi, alkimyo esa insonning ichki o'zgarishi, ruhiy takomil jarayonining badiiy ifodasidir. Koelo bu ramzlarni sodda lekin chuqur ma'noli qilib berishi bilan mashhur. Shu boisdan roman o'quvchining yoshidan, tajribasidan qat'i nazar, har kim uchun o'zicha ma'no bera oladi. "Alkimyogar"ni o'zbek kitobxoniga yaqinlashtiradigan eng muhim

jihatlardan biri - uning ruhiy-axloqiy yo'nalishidir. O'zbek xalq og'zaki ijodi, tasavvuf adabiyoti, pand-nasihat maktabi va sharqona ma'naviyatda ham "o'z yo'lini topish", "qalb ovozi tinglash", "mehnat orqali kamolga yetish" kabi g'oyalar alohida o'rin tutadi. Koeloning asarida uchraydigan hikmatlar, eng sodda voqea orqali berilgan o'gitlar, hayotga bo'lgan teran qarashlar - bularning barchasi Sharq ruhiga mos tushadi. Shu sabab romanning O'zbekistonda alohida iliqlik bilan qabul qilinishi tabiiydir.

Asar nafaqat syujet, balki badiiy uslub jihatidan ham yengil, ravon, falsafiy timsollar bilan boy. Dialoglar qisqa, ammo mazmunli, ramzlar sodda, lekin teran. Bu Koeloning umumjahon ruhiy tajribasini turli o'quvchilarga tushunarli shaklda bera olgan adib sifatida dunyoga tanilishiga sabab bo'lgan.

Roman o'zining bunday badiiy-falsafiy tabiatiga ko'ra tarjimada nihoyatda nozik yondashuvni talab qiladi. Aynan shunday murakkab mazmunni o'zbek tilida tabiiy, badiiy va ravon shaklda berish - Ozod Sharafiddinovning mahoratini yanada yorqin namoyon etadi.

Ozod Sharafiddinov tarjima maktabi. O'zbek adabiy jarayonida tarjima san'ati haqida gap ketganda, Ozod Sharafiddinov nomi eng avvalo tilga olinadi. U o'zining ilmiy izlanishlari, adabiyotshunoslikdagi chuqur tahlillari va jahon adabiyotini o'zbek kitobxoniga yaqinlashtirishdagi xizmatlari bilan nafaqat tarjimon, balki adabiy maktab yarata olgan ijodkordir. Sharafiddinovning tarjima borasidagi qarashlari aniq tamoyillarga tayangan bo'lib, u har bir asarni oddiy so'zma-so'z ko'chirish emas, balki uning badiiy ruhi, estetik ohangi va muallif maqsadini milliy tilga mos shaklda qayta yaratish deb bilgan. Ozod Sharafiddinovning tarjima uslubidagi asosiy tamoyil - asarga xiyonat qilmaslik, lekin o'zbek o'quvchisining ruhiyatidan uzoqlashmaslikdir. U mazmunning tiniqligini birinchi o'ringa qo'ygan, lekin tildagi nafislik, badiiylik va ravonlikni ham asarning ajralmas qismi sifatida ko'rgan. Uning tarjimalari orasida Ernest Hemingway, Albert Kamyu, Chingiz Aytmatov, Lev Tolstoy kabi yozuvchilarning

asarlari borligi Sharafiddinovning keng dunyoqarashga ega tarjimon bo'lganini ko'rsatadi.

Ozod Sharafiddinovning yana bir muhim jihati - tarjimaning adabiyotning o'ziga xos mustaqil shakli ekanini anglaganidir. U tarjimonning vazifasi faqat matnni o'tkazish emas, balki asarni mahalliy adabiy muhitga ko'chirish jarayonida ma'naviy ko'priq qurish deb bilgan. Shu bois uning tarjimalari doimo o'quvchiga yaqin, fikran oson qabul qilinadigan, lekin badiiy mazmunidan ayrilmagan shaklda bo'lgan. Ko'plab

adabiyotshunoslar Ozod Sharafiddinovni “maktab” darajasiga ko‘targan tarjimon sifatida e’tirof etadi. Chunki u o‘z tarjimalarida tilning tabiiyligini, badiiyligining o‘zini, ohangning jonlilik darajasini muallif darajasiga yaqin olib kelgan. Sharafiddinov u qadar og‘ir va murakkab matnlarni ham o‘zbek o‘quvchisi uchun sodda, ammo mazmunan to‘liq shaklda bera olgan. Uning ilmiy ishlari ham tarjima jarayoniga nazariy asoslar bergani bilan ajralib turadi.

“Alkimyogar” asarida Ozod Sharafiddinovning tarjima mahorati. O‘zbek tarjimashunosligi tarixida Ozod Sharafiddinovning o‘rni shundaki, u o‘zbek adabiy tilining imkoniyatlarini kengaytirgan, milliy ifodaning zamonaviy va jahon adabiyoti bilan uyg‘unlashuvini ta’minlagan. Uning tarjimalari orqali o‘zbek kitobxonining dunyoqarashi kengaydi, badiiy didi boyidi, estetik madaniyati yuksaldi. Aynan shunday ijodiy yondashuv Ozod Sharafiddinovning “Alkimyogar” tarjimasida ham o‘z aksini topadi. Ozod Sharafiddinovning tarjima uslubi — bu oddiy so‘zlarni boshqa tilga o‘tkazish emas, balki badiiy matnni o‘zbek o‘quvchisining qalbiga moslashtirish san’atidir. “Alkimyogar”ni o‘zbek tilida kitobxonlarga yetkazish jarayonida u asarning mazmunini saqlab qolish bilan birga, o‘zbek adabiy tilining barcha boy imkoniyatlaridan foydalangan. Ozod Sharafiddinovning uslubi bir necha asosiy xususiyat bilan ajralib turadi:

Badiiy ravonlik va ohangdorlik. U Koelonig yengil, ammo falsafiy ohangga boy uslubini o‘zbek tilida ham tabiiy va ravon ifodalagan. Matnni o‘qiyotganda o‘quvchi gaplarning oqimi, ritmi va intonatsiyasini his qiladi.

Masalan, Santiago ichki monologlari tarjimada ham jonli va hayotiy, ularni o‘quvchi tabiatiy ravishda qabul qiladi.

Metafora va timsollarni aniqlik bilan yetkazish. Asarda uchraydigan alkimyo, cho‘l, shamol kabi ramzlar Ozod Sharafiddinov tarjimasida sodda, lekin ma’noli shaklda berilgan. U metaforalarning falsafiy qatlamini saqlab, o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli ifodalarga aylantirgan. Masalan, “shaxsiy afsona” iborasi o‘zbek tilida falsafiy teranlik bilan, kitobxon ruhiyatiga mos tarzda tarjima qilingan.

Dialog va monologlarni tabiiylashtirish. Sharafiddinov dialoglar orqali qahramonlarning xarakterini ochish va ularning psixologiyasini ifodalashda yuqori mahorat ko'rsatgan. Asardagi suhbatlar so'zma-so'z emas, balki o'zbek nutq madaniyati va odobiga moslashtirilgan, shu bilan birga muallifning niyatini to'liq saqlagan.

O'zbek tilining badiiy imkoniyatlaridan foydalanganlik. U tarjimada nafaqat sinonimlardan, balki maqollar, xalq og'zaki ijodi elementlari va badiiy qiyofalarni ishlatgan. Bu "Alkimyogar"ni o'zbek kitobxonlari uchun nafaqat tarjima, balki badiiy asarga aylantiradi. Tarjima matni o'quvchida tabiiy his uyg'otadi va romanning falsafiy mazmunini chuqur anglashga yordam beradi.

Tarjimonning madaniy sezgisi. Ozod Sharafiddinov faqat matnni tarjima qilmagan, balki o'zbek madaniyati va kitobxonning ruhiyatini hisobga olgan. Asardagi qadimiy hikmatlar, hayotiy maslahatlar, ruhiy izlanishlar o'quvchi ongida tabiiy tarzda qabul qilinadi. Bu esa tarjimani o'ziga xos va samarali qiladi. Umuman olganda, Ozod Sharafiddinov uslubi — badiiy tarjimaning yuqori namunasidir. Ozod Sharafiddinov tarjimasi tufayli "Alkimyogar" romani O'zbekistonda keng kitobxon ommasiga yetib bordi va bu tarjima faqat so'zma-so'z ko'chirish emas, balki badiiy va falsafiy tafakkurni uyg'otadigan asar sifatida qabul qilindi. Tarjima o'quvchilarga Santiago qahramonining ichki o'sishi, sinov va muvaffaqiyat yo'lini tabiiy tarzda his qilish imkonini berdi. Masalan, Santiago olkimyo ustozidan shunday nasihat oladi: "Agar sen haqiqatni izlab topmoqchi bo'lsang, qo'rquvga berilma va

yuragingni tingla." Tarjimon bu jumlaning o'zbek tilida shunday yetkazadi: "Haqiqat sari intilar ekansan, qo'rquvga berilma va qalbingni tingla."

Tarjimadagi noziklik shundaki, "intilar ekansan" iborasi o'zbek tilining tabiatiga mos va badiiy ohangni saqlab, o'quvchini voqeaga kirishga undaydi. Shu jumla Santiago safaridagi asosiy falsafiy g'oyani - shaxsiy afsona sari yurish, ichki ovozni tinglash - aniq yetkazadi.

Bundan tashqari, romanda cho‘l timsoli ko‘p uchraydi. Koelo cho‘lni ruhiy poklanish va sinov maydoni sifatida beradi: “Cho‘l sening ichingdagi qo‘rquv va shubhalarni yuzaga chiqaradi, lekin shu orqali sen kuch topasan.” Tarjimasida bu shunday ifodalanadi: “Cho‘l ichingdagi qo‘rquv va shubhalarni yuzaga chiqaradi, shu yo‘l bilan sen o‘z kuchingni kashf qilasan.”

Bu misolda tarjimonning badiiy didi ko‘rinadi: so‘zlar tabiiy, ohang jonli, va falsafiy mazmun o‘quvchi qalbida to‘g‘ri aks etadi. Shu tariqa kitobxon Santiago bilan birga sayohat qiladi, uning ichki o‘zgarishlarini hissiy va ruhiy jihatdan qabul qiladi. Shuningdek, romandagi alkimyo” ramzi Ozod Sharafiddinov tarjimasida ham kuchli saqlangan. Koelo alkimyoni shaxsiy kamolot va hayot maqsadining timsoli sifatida beradi. Tarjima orqali o‘quvchi shunday jummalarni o‘zbek tilida qabul qiladi: “Ha, alkimyo sizni hayotning sirli qonunlariga olib boradi, uni tushungan kishi, o‘z orzularini amalga oshiradi.” Ushbu jumla orqali o‘quvchi nafaqat qahramonning maqsadini, balki o‘z hayotida ham orzu va intilish ahamiyatini his qiladi.

Umuman olganda, Sharafiddinov tarjimasi O‘zbekistonda romanning ruhini saqlab, falsafiy mazmunini to‘liq yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Tarjima o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan qiziqish, o‘zini o‘rganish va ichki intilish ruhini uyg‘otadi. Shu sababli “Alkimyogar” O‘zbekistonda nafaqat bestseller, balki ruhiy va badiiy tajriba manbai sifatida qadrlanadi.

Xulosa. Paulo Koeloning “Alkimyogar” romani faqat Santiago qahramonining sayohati emas, balki hayotiy izlanishlar, insoniy qadriyatlar va ruhiy

o‘lish timsolidir. Ozod Sharafiddinov tarjimasi esa bu sayohatni o‘zbek kitobxonining ruhiyatiga mos, badiiy va jonli shaklda yetkazishga muvaffaq bo‘ldi.

Santiago safarida duch kelgan har bir qahramon — ota-onasi, qo‘ylari alkimyo ustoz, kristall do‘konidagi yigit, Fotima va hatto piramida oldidagi qaroqchilar - tarjimada o‘z ifodasini topgan. Masalan, ota-onasi va qo‘ylari bilan bog‘liq voqealar Sharafiddinov tarjimasida Santiago qalbidagi iliqlik va mehr- muhabbat orqali

jonlantirilgan. Piramida oldidagi qaroqchilar bilan yuzaga kelgan xavfli lahzalar esa tarkibiy ohangni saqlagan holda o'quvchida hayajon uyg'otadi.

Fatimaning obrazi Sharafiddinov tomonidan qat'iy, badiiy va jonli tarzda berilgan. Santiago va Fotima o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro muloqotlari o'zbek tilida tabiiy, estetik va falsafiy mazmunga boy bo'lgan. Kristall do'konidagi yigit esa hayotiy qarorlar va kichik, ammo muhim sinovlarni ifodalaydi. Tarjimon ushbu qahramonlarning har birini o'zbek kitobxonining qalbiga yaqinlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Umuman olganda, Sharafiddinov tarjimasi "Alkimyogar"ni o'zbek adabiy tarjimashunosligida noyob yutuqqa aylantirdi. U nafaqat romanning mazmunini, balki qahramonlarning ruhiy hayotini, falsafiy mushohadalarni va badiiy ohangni ham o'zbek kitobxoniga etkazdi. Natijada, romanning har bir sahnasi, har bir qahramonning xarakteri va harakatlari jonli, tushunarli va ilhomlantiruvchi bo'ldi.

Shu tariqa, "Alkimyogar"ning Ozod Sharafiddinov tarjimasi O'zbekiston kitobxonlari uchun nafaqat bestseller, balki ruhiy o'sish, o'zini kashf etish va hayotiy qadriyatlarni anglash manbai sifatida qadrlanadi. Tarjimaning muvaffaqiyati esa, bir tomondan, Sharafiddinovning badiiy sezgisi va tarjima mahoratiga, boshqa tomondan, Santiago va barcha yordamchi qahramonlarning hayotiy va falsafiy izlanishlarini o'quvchiga etkazish san'atiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddinov, O. "Alkimyogar" o'zbek tarjimasi. T.: Adabiyot nashriyoti, 2002.
2. Coelho, P. The Alchemist: A Fable About Following Your Dream. HarperOne, 1993.
3. Abdurahmonov, Sh. Tarjima san'ati va badiiy tarjima muammolari. T.: Fan, 2010.
4. Qodirov, M. O'zbek tarjimashunosligi tarixi. T.: Akademnashr, 2015.